

### JAMIYAT MA'NAVIY YUKSALISHIDA YOSH AVLOD TARBIYASINING O'RNI

*E'zoza Axmadjonova*

*TDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yosh avlod kamolotida tarbiyaning o'rni va o'z navbatida jamiyat ma'naviy yuksalishida yosh avlod tarbiyasining ahamiyati borasidagi tahlillar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, yosh avlod tarbiyasi, vatanparvarlik, ma'naviy yuksalish

### РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХОВНОМ ВОСХОЖДЕНИИ ОБЩЕСТВА

**Аннотация** В данной статье выражается роль образования в взрослении молодого поколения и, в свою очередь, значение воспитания молодого поколения в духовном восхождении общества.

**Ключевые слова:** воспитание, воспитания подрастающего поколения, патриотизм, духовное восхождение.

### THE ROLE OF EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION IN THE SPIRITUAL ASPECT OF SOCIETY

**Annotation.** This article expresses the role of education in the maturation of the young generation and, in turn, the importance of educating the young generation in the spiritual ascent of society.

**Key words:** Upbringing, spiritual upbringing, fatherland, patriotism, spiritual rebirth, spiritual ascent.

Hech kimga sir emaski, har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan borishi, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarilgan.

Zotan, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisidir. Bir so'z bilan aytganda asrlar davomida xalqimiz orzu qilib kelgan, ajdodlarimiz o'z asarlarida umid bilan tasvirlagan "Komil inson" obrazini shakllantirish uchun tarbiya ham asosiy omil, ham vosita hisoblanadi.

Ayni paytda tarbiya yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash vositasi bo'lib, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi.

Har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho bo'yluk bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi, deb bilganlar.

Tarbiya yoshlarda juda ko'p ezgu fazilatlarni, jumladan vatanparvarlikni tarbiyalashdagi eng muhim omildir. Ma'rifatparvar agdodlarimizdan biri Alixonto'ra Sog'unuy o'z esdaliklarida shunday yozgan edi: "... Dunyoda yashaydigan har bir kishining ayamlik, qizg'anib saqlaydigan besh narsasi bordir, birinchisi- joni, keyingilari – dini, moli, oilasi va ona Vatanidir"(3).

Shu boisdan mustaqillikning dastlabki yillarida fuqarolarda Vatan tuyg'usini hamda xalq, millat, Vatan manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya olish fazilatini shakllantirish uchun ham yosh avlod ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'z o'rnida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishni amalga oshirishda aholining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish haqida bejizga quyidagilarni ta'kidlamagan edi: "Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir"(2).

Bu O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar fuqarolar, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodga berilayotgan ma'naviy tarbiyaning hayotiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligining yorqin ifodasidir.

Bugungi kunda respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab demokratik jamiyat barpo etish, ma'naviy tiklanish va ma'naviy yuksalishga erishish uchun tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinayotganligining asl sababi ham shunda.

Biz komillikni orzu qilamiz. Komillik sari intilish jarayoni eng avvalo, tarbiyadan boshlanadi. Tarbiyaning ildizi esa oilaga borib taqaladi. Oilasining hurmatini saqlash uchun o'zini har xil nomaqbul ishlardan tiyadi. Oiladagi tarbiya yuksak bo'lsa, jamiyatdagi tarbiya ham jonlanib, yuksalib boraveradi.

Yuqorida qisqacha bayon etilgan fikr va mulohazalar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

**Birinchi**dan, yoshlar ongida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'shliqni to'g'ri olib borilgan tarbiya orqaligina to'ldirishimiz mumkin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlayotganlaridek: "Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"(1).

**Ikkinchi**dan, ta'lim va tarbiya faoliyatiga daxldor bo'lgan har bir shaxs xalq, millat va Vatan taqdirini hal qiluvchi omi – bu o'z vaqtida, to'g'ri olib borilgan tarbiya ekanligini yodidan chiqarmasligi zarur;

**Uchinchi**dan, bugun tom ma'noda milliy yuksalishga erishishni, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish – eng oliyanob maqsadimizga aylangan ekan, eng avvalo tarbiyaviy faoliyatni xolis, sidqidil dan oliob borishimiz lozim.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti jarayoni jamiyatning barcha jabhalari qatori ma'naviy-ma'rifiy sohasida ham jamiyatning har bir fuqarosi zimmasiga burch va mas'uliyat yukladi. Vatanimizdagi har kishi, xar bir ziyoli va har bir Vatan farzandi bu burchni bajarishga kirishishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи.//Халқ сўзи, 2017 йил, 30 июнь.
2. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005 йил.-177-б.
3. Мурод Хўжа. Биз Ватанни қанчалик севамир. – Тошкент: Ўзбегим нашри,1992, №1.- 28-б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006 йил. -678-б.
5. Sobirova M., Xo‘jayev M. Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari. Darslik. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT” nashriyoti, 2024. – 304 b.